



MAHALLIY QUYONLARNING KALIFORNIYA ZOTLI QUYON BILAN CHATISHTIRISH ORQALI OILNGAN DURAGAYLARNI PUSHTDORLIK XUSUSIYATLARI

Mamanov Doston Shamsiddin o'g'li

Quyunchilik seleksiya va genetika markazi, tayanch doktorant

Muxtorov Bahodirxon Obidxon o'g'li

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy quyonlarni kaliforniya zotli quyonlar bilan chatishtirish orqali oilngan duragaylarni pushtdorligi, ulardan olingan avlodlarni yashovchanligi va sutdorligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Mahalliy quyonlar, Kaliforniya zoti, sut mahsuldorligi, yashovchanligi, serpushtiligi, quyon bolalari

Аннотация: В статье говорится о плодовитости помесей, выведенных путем скрещивания домашних кроликов с калифорнийскими кроликами, жизнеспособности и молочной продуктивности их потомства.

Abstract. The article talks about the fertility of hybrids bred by crossing domestic rabbits with California rabbits, the viability and milk production of their offspring.

Quyunchilik sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarini yaratish, yangi mahalliy zotlarni takomillashtirish, quyonlar seleksiyasi va genetikasi sohasida raqobatbardosh mahalliy texnologiyalar majmuasining zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, tarmoqni kelgusida rivojlantirish, quyunchilik sohasida seleksiya-naslchilik ishlarini takomillashtirish va raqobatbardosh mahalliy texnologiyalar yaratish, sun'iy urug'lantirish ishlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni bajarish loyihaning dolzarbligini belgilaydi.

Ilmiy-tadqiqotlar Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi Quyunchilik seleksiyasi va genetika markaziga qarashli quyunchilik fermasida bajarilgan bo'lib, Kaliforniya zotli erkak quyon bilan maxalliy quyonlar chatishtirilishdan olingan duragay quyon bolalari maxalliy quyon bolalari bilan taqqoslab o'rganildi. Tajriba o'tkazish uchun 20ta nazorat va 20ta tajriba guruhiga quyon bolalari ajratib olindi va qochirish vazniga yetganida qochirib bola olindi. Quyonlarni baholashni oddiy yo'llaridan biri uning pushtdorlik xususiyati hisoblanadi. Unda tug'ilgan bolalarining soni va sifati, o'stirgan bolalarining har bir tuqqandagi soni va sifatiga qarab baholash hisoblanadi. Quyidagi jadvalda ularni serpushtiligi, sutdorlik va boshqa ko'rsatkichlari keltirilgan.

Quyionlarni pushtdorlik xususiyati (n=20)

Ko'rsatkichlar	Guruxlar	
	Nazorat	Tajriba
Serpustlik, soni	6±0,35	8±0,43
Tirik bolalari, soni	4±0,13	7±0,18
O'liklar bolalari, soni	2±0,51	1±0,42
Sutdorlik,g	2752,3±74,52	2865,9±82,81
Quyion bolasini 21 kunligiga qadar yashovchanligi, %	83,3±21	87,5±25
4 oy davrigacha o'lganlar, %	33,3±34	12,5±29
Quyion bolasini 120 kunligiga qadar, yashovchanligi%	66,6±21	87,5±25

Jadval ma'lumotlaridan shuni aytishimiz mumkinki, tajribadagi Kaliforniya zotli erkak quyion bilan maxalliy quyionlar chatishtirilishdan olingan duragay quyionlar nazorat guruhidagi quyionlarga nisbatan serpushtiligi o'rtacha 33,33% ga yuqori bo'ldi. Nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi quyionlari o'rtacha 113,6 grammga ortiqcha sut mahsuldorlikga ega ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhi quyionlarida yosh tug'ilgan bolalarini yashovchanligi 21- kunlik yoshiga qadar o'rtacha 87,5%ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich nazorat guruhida o'rtacha 83,3% tashkil qilib, tajriba guruhiga nisbatan 4,2% kam bo'lgan bo'lsa, 120 kunlik yoshiga kelib tajriba guruhida o'rtacha 87,5% bo'ldi, nazorat guruhida esa o'rtacha 66,6% bo'ldi.

Shunday qilib, mahalliy quyionlarni Kaliforniya zotli erkak quyionlar bilan qochirib olingan duragaylarni pushtdorlik ko'rsatgichlariga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bu usulda olingan duragaylarni serpushtiligi o'rtacha 33,33% yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xidirov K.I., Ruziev R.I., Muxtorov B.O., Xolmatov A.X. – "Maxlliy quyion zotdorligiga mansub quyionlarni sutdorligini bolalarini yashovchanligiga ta'siri". "O'zbekiston veterinariya va chorvachilikni rivojlantirishda yosh olimlarning o'rni" mavzusidagi "2021 yil Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"ga bag'ishlangan professor-o'qituvchi va yosh olimlarning II-masofaviy ilmiy – amaliy Konferensiyasi. 2021-yil.

2. Xolmatov A.X, Xidirov K.I, Narinov U.A – Quyionlarni boqish, parvarishlash va ko'paytirish. Monografiya. Toshkent "IQTISOD MOLIYA" 2020

3. Xidirov K.I., Ruziev R.I., Allashov F.S. Ona quyionlarni sutdorligini bolalarining yashovchanligiga ta'siri



4. Xidirov K.I., Ruziev R.I., Allashov F.S. "Ona quyonlarni sutdorligini bolalarining yashovchanligiga ta'siri" Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari: zamonaviy amaliyot va innovatsion texnologiyalar respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami II qism 21-22 may, 2020 yil

5. Qo'shoqov Sh. «Quyunchilik» Toshkent o'qituvchi, 1994 y. 14 – 17 b.